

INKLYUZIV TA'LIM KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA DEONTOLOGIK YONDASHUVNING FALSAFII-PEDAGOGIK ASOSLARI

Xolmatova Saidaxon Voxobjonovna

*Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet
tillar instituti dotsenti, pedagogika
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

998 97 212 08 75; E-mail: xolmatovasaida75@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola bo'lajak pedagoglarning inklyuziv ta'lim kompetensiyasini rivojlantirishda deontologik yondashuvning falsafiy va pedagogik asoslarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashga bag'ishlangan. Tadqiqotda inklyuziv ta'limning insonparvarlik prinsiplari hamda pedagogik deontologiyaning kasbiy burch va axloqiy mas'uliyat g'oyalari sintez qilinadi. Inklyuziv ta'lim kompetensiyasini deontologik yondashuv asosida shakllantirish – bu har bir o'quvchining ta'lim olish huquqini hurmat qilish, individual ehtiyojlariga moslashish va shu jarayonda kasbiy-axloqiy tamoyillarga qat'iy rioya qilishga qodir bo'lgan pedagogning yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarligi sifatida ta'riflanadi. Maqolada ushbu kompetensiyaning gumanistik, axloqiy burch, adolat va pedagogik prinsiplari batafsil tahlil qilingan. Konsepsiyani oliy pedagogik ta'lim jarayoniga integratsiya qilish zaruriyati asoslangan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, deontologiya, kompetensiya, pedagogik deontologiya, kasbiy etika, pedagogik burch, axloqiy mas'uliyat, falsafiy asoslar, pedagogik asoslar, oliy pedagogik ta'lim.

ФИЛОСОФСКО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДЕОНТОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА К ФОРМИРОВАНИЮ КОМПЕТЕНЦИЙ В ИНКЛЮЗИВНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. Данная статья посвящена научно-теоретическому обоснованию философских и педагогических основ деонтологического подхода в развитии инклюзивной образовательной компетентности будущих педагогов. В исследовании синтезируются гуманистические принципы инклюзивного образования и идеи профессионального долга и этической ответственности педагогической деонтологии. Формирование инклюзивной образовательной компетентности на основе деонтологического подхода определяется как высокий уровень профессиональной готовности педагога, способного уважать право каждого учащегося на образование, адаптироваться к индивидуальным потребностям и при этом строго соблюдать профессионально-этические принципы. В статье подробно анализируются гуманистические, нравственные, справедливые и педагогические принципы этой компетентности. Обосновывается необходимость интеграции этой концепции в процесс высшего педагогического образования.

Ключевые слова: инклюзивное образование, деонтология, компетентность, педагогическая деонтология, профессиональная этика, педагогический долг, этическая

ответственность, философские основы, педагогические основы, высшее педагогическое образование.

PHILOSOPHICAL-PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE DEONTOLOGICAL APPROACH IN FORMING INCLUSIVE EDUCATION COMPETENCE

Annotation. *This article is devoted to the scientific and theoretical substantiation of the philosophical and pedagogical foundations of the deontological approach in developing inclusive education competence among future teachers. The study synthesizes the humanistic principles of inclusive education with the ideas of professional duty and ethical responsibility from pedagogical deontology. Forming inclusive education competence based on a deontological approach is defined as a high level of professional readiness of a pedagogue capable of respecting every student's right to education, adapting to individual needs, and strictly adhering to professional-ethical principles throughout this process. The article thoroughly analyzes the humanistic, moral duty, justice, and pedagogical principles of this competence. The necessity of integrating this concept into higher pedagogical education is substantiated.*

Keywords: *inclusive education, deontology, competence, pedagogical deontology, professional ethics, pedagogical duty, ethical responsibility, philosophical foundations, pedagogical foundations, higher pedagogical education.*

KIRISH

Hozirgi davrda ta'lim tizimida ro'y berayotgan chuqur o'zgarishlar, xususan, inklyuziv ta'lim tamoyillarining keng joriy etilishi pedagog kadrlar tayyorlash tizimiga yangicha talablar qo'ymoqda. Inklyuziv ta'lim har bir bolaning, uning jismoniy, aqliy, ijtimoiy, emotsional, lingvistik yoki boshqa xususiyatlaridan qat'i nazar, sifatli ta'lim olishga bo'lgan huquqini ta'minlashga qaratilgan. Bu esa pedagogdan nafaqat maxsus bilimlarni, balki chuqur axloqiy asosga ega bo'lishni ham talab etadi. Pedagogik faoliyatning eng murakkab va mas'uliyatli yo'nalishlaridan biri bo'lgan inklyuziv ta'lim sharoitida pedagog o'zining kasbiy burchini to'laqonli anglagan holda, har bir bolaga nisbatan axloqiy me'yorlarga qat'iy rioya qilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasida ham inklyuziv ta'limni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Prezident Farmonlarida uning huquqiy asoslari mustahkamlangan. Bu jarayon umumta'lim maktablariga alohida ta'lim ehtiyojli bolalarning kengroq jalb etilishini, moslashtirilgan o'quv dasturlari va metodikalarini qo'llashni, eng muhimi,

pedagoglarning yangi sharoitga mos kasbiy-axloqiy tayyorgarligini taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, pedagogika fanida inklyuziv ta'lim kompetensiyasini shakllantirishda deontologik yondashuvning falsafiy-pedagogik asoslarini ilmiy asoslash va uni bo'lajak pedagoglar tayyorlash tizimiga integratsiya qilish zarurati yuzaga keladi. Ushbu kompetensiya pedagogning inklyuziv muhitdagi kasbiy faoliyatida axloqiy-huquqiy tamoyillarga asoslangan holda samarali yechimlar topish qobiliyatini ifodalaydi. Bugungi kunga qadar inklyuziv ta'lim kompetensiyasi va pedagogik deontologiya alohida-alohida tadqiq etilgan bo'lsa-da, ularning o'zaro sinteziga asoslangan yagona kompetentlik modelini ishlab chiqish bo'yicha izlanishlar yetarli emas. Bu esa mazkur tadqiqotning ilmiy muammosini va dolzarbligini belgilaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Inklyuziv ta'lim nazariyasi va amaliyoti XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab faol o'rganila boshlandi. UNESCOning "Salamanka deklaratsiyasi" kabi fundamental hujjatlari inklyuziya g'oyalarining global miqyosda tarqalishiga xizmat qildi. M.Ainscow, L.Florian kabi yetakchi tadqiqotchilar inklyuziv ta'lim tizimlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini, uning samaradorligini ta'minlash mexanizmlarini chuqur o'rganganlar. Ularning ishlarida inklyuziv muhitni yaratishda pedagoglarning roli va ularning maxsus kompetensiyalarga ega bo'lishi zarurligi alohida ta'kidlangan. V.A.Slastenin va A.K.Markova kabi olimlar pedagog kompetensiyasining tarkibiy tuzilishiga oid fundamental ishlarida kompetensiyani bilimlarning, ko'nikmalarning va shaxsiy sifatlarning yig'indisi sifatida tushuntirganlar. Inklyuziv pedagog kompetensiyasining o'ziga xos xususiyatlari T.N.Gushchina tomonidan ham tahlil etilgan bo'lib, u pedagoglarning inklyuziv muhitda muvaffaqiyatli ishlashlari uchun zarur bo'lgan psixologik-pedagogik tayyorgarlikning ahamiyatini ko'rsatgan. L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi ham maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashda ijtimoiy o'zaro aloqaning muhimligini asoslaydi.

Pedagogik deontologiya masalalari esa I.Kantning burch falsafasiga borib taqalib, kasbiy burch, mas'uliyat va axloqiy me'yorlar tushunchalarini markaziy o'ringa qo'yadi. Pedagogik etikaga oid tadqiqotlarda N.V.Safina va N.G.Chigarkina

kabi olimlarning ishlari kasbiy burch va axloqiy me'yorlarning pedagogik faoliyatdagi o'rni, shuningdek, pedagogning professional-etik kompetentligi haqida muhim tushunchalar beradi. Mahalliy olimlardan N.M.Gaybullayev, U.Sh.Maxkamov, B.X.Po'latov kabi tadqiqotchilar O'zbekistonda inklyuziv ta'limning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganganlar. A.N.Djumaniyozov, N.U.Nishonova, M.X.Usmanova kabi olimlar esa pedagogik deontologiyani ta'limdagi kasbiy faoliyat nuqtai nazaridan tahlil qilganlar. Biroq, inklyuziv ta'lim kompetensiyasini deontologik asoslar bilan bevosita birlashtirib, uning falsafiy-pedagogik asoslarini ilmiy asoslash bo'yicha tizimli tadqiqotlar cheklangan. Ushbu ilmiy bo'shliq mazkur tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyatini oshiradi. Mazkur tadqiqotda tizimli-strukturaviy yondashuv, kompetentlik yondashuvi, qiyosiy-tahliliy tahlil va sintez metodlaridan foydalanildi. Inklyuziv ta'lim va pedagogik deontologiya nazariyalarining o'zaro integratsiyasi ushbu falsafiy-pedagogik asoslarni shakllantirishning metodologik asosi bo'ldi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, kategoriyalarni umumlashtirish, induksiya va deduksiya, ilmiy farazlarni ilgari surish va ularni asoslash usullari qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi bo'lajak pedagoglarda inklyuziv ta'lim kompetensiyasini shakllantirishda deontologik yondashuvning falsafiy-pedagogik asoslarini nazariy jihatdan asoslashdan iborat.

MUHOKAMA

Inklyuziv ta'lim kompetensiyasini shakllantirishda deontologik yondashuvning falsafiy-pedagogik asoslari pedagogning inklyuziv ta'lim muhitida kasbiy faoliyatini inson huquqlari, tenglik, adolat prinsiplariga asoslangan holda, o'zining kasbiy burchi va axloqiy mas'uliyatini to'liq anglab amalga oshirish qobiliyatini nazarda tutadi. Bu kompetensiya bilish, qilish bilan birga, pedagogning axloqiy-qadriyat yo'nalishini ham o'z ichiga oladi, bunda burch hissi asosiy harakatlantiruvchi kuch bo'ladi. Uni falsafiy va pedagogik jihatdan quyidagi asoslarga ajratish mumkin. Deontologik yondashuv inklyuziv ta'lim kompetensiyasini shakllantirishda pedagogning kasbiy faoliyatini inson huquqlari, tenglik va adolat prinsiplariga tayangan holda amalga oshirishini nazarda tutadi. Falsafiy jihatdan bu yondashuv gumanizm va inson qadr-qimmatiga hurmat (har bir

o'quvchini maqsad deb bilish, axloqiy burch va mas'uliyatni chuqur anglash (har bir o'quvchiga sifatli ta'lim berish, uning rivojlanishi va himoyasi uchun mutlaq burch), adolat va tenglik tamoyillariga qat'iy rioya qilish (teng imkoniyatlar yaratish, huquqlarni himoya qilish) hamda kasbiy etika va vijdonning ustuvorligini (ichki ishonchga asoslangan qaror qabul qilish) o'z ichiga oladi. Pedagogik asoslar esa oliy ta'lim dasturlariga pedagogik deontologiya modullarini kiritish, real kasbiy-axloqiy vaziyatlarni (keys-stadi) tahlil qilish orqali axloqiy mulohaza yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish, pedagogning shaxsiy namunasining ahamiyatini ta'kidlash, reflektiv kompetensiyani rivojlantirish (o'z-o'zini baholash va takomillashtirish) hamda professional jamoatchilikda axloqiy me'yorlarga (hamkorlikda sirlarni saqlash, hurmat) rioya qilishga qaratilgan. Bu ikki asos inklyuziv ta'limda pedagogning nafaqat bilish va amaliy ko'nikmalarini, balki kasbiy burchga sadoqat va axloqiy mas'uliyatga ega bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu falsafiy va pedagogik asoslar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, inklyuziv ta'lim kompetensiyasini deontologik yondashuv asosida shakllantirishning yaxlit tizimini tashkil etadi. Ularning har biri pedagogning kasbiy o'sishi va inklyuziv muhitda samarali faoliyat yuritishi uchun fundamental ahamiyatga ega. Ushbu konsepsiyani oliy pedagogik ta'lim jarayoniga joriy etish orqali bo'lajak pedagoglarda faqatgina bilish va amaliy ko'nikmalarni emas, balki insonparvarlik, adolat va burchga asoslangan mustahkam axloqiy pozitsiyani ham shakllantirish mumkin.

XULOSA

Inklyuziv ta'lim kompetensiyasini shakllantirishda deontologik yondashuvning falsafiy-pedagogik asoslarini ilmiy-nazariy asoslash zamonaviy pedagogik ta'lim oldida turgan muhim vazifadir. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, samarali inklyuziv ta'lim amaliyotini ta'minlash nafaqat pedagogning intellektual va operatsional ko'nikmalariga, balki uning kasbiy burchi, axloqiy mas'uliyati va chuqur qadriyat yo'nalishlariga ham bevosita bog'liq. Aniqlangan falsafiy (gumanizm, axloqiy burch, adolat, vijdon) va pedagogik (dasturlarni takomillashtirish, keys-stadi, shaxsiy namuna, reflektivlik, hamkorlik) asoslar inklyuziv ta'limdagi pedagogik faoliyatning barcha muhim jihatlarini axloqiy-deontologik nuqtai nazardan birlashtirib, pedagogning professional va axloqiy

tayyorgarligini to'liqroq yoritadi. Ushbu yondashuv modelini oliy pedagogik ta'lim dasturlariga joriy etish orqali bo'lajak pedagoglarda faqatgina texnik ko'nikmalarni emas, balki insonparvarlik, adolat va burchga asoslangan mustahkam axloqiy pozitsiyani ham shakllantirish mumkin. Bu esa O'zbekistonda chinakam inklyuziv, har bir shaxsning qadr-qimmatini hurmat qiladigan ta'lim tizimini barpo etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Kelgusida inklyuziv ta'lim kompetensiyasini deontologik yondashuv asosida diagnostika qilish mezonlari, uni shakllantirishning samarali pedagogik texnologiyalari va metodikalarini ishlab chiqish bo'yicha amaliy tadqiqotlarni davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. UNESCO. Guidelines for Inclusion: Ensuring Access to Education for All. – Paris: UNESCO, 2005.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. Yangi tahriri. – Toshkent, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. – Toshkent, 2022 yil 28 yanvar, PF-60-son.
4. The Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education. UNESCO, Paris. – 1994. – 47 p.
5. UNESCO. (2017). A Guide for Ensuring Inclusion and Equity in Education. UNESCO Publishing.
6. Ainscow, M. (2005). Developing inclusive education systems: what are the levers for change? *Journal of Educational Change*, 6(2), 109-124.
7. Florian, L. (2014). What counts as evidence of inclusive education? *European Journal of Special Needs Education*, 29(3), 286-294.
8. Слостенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / Под ред. В.А. Слостенина. – М.: Издательский центр "Академия", 2002. – 576 с.
9. Гущина Т.Н. Формирование профессиональной компетентности педагогов в условиях инклюзивного образования. *Вестник Костромского государственного университета. Серия: Педагогика. Психология. Социокинетика*. 2017. №4. С. 136-140.
10. Выготский, Л.С. Собрание сочинений: В 6-ти т. Т.4. Детская психология / Под ред. Д.Б. Эльконина. - М.: Педагогика, 1984. – 432 с.
11. Кант И. Основы метафизики нравственности. Критика практического разума. – М.: Эксмо, 2017.